

**O‘ZBEK-YAPON TILIDA “O‘LIM” BILAN BOG‘LIQ
EVFEMIK BIRLIKLARINI SOLISHTIRISH**

Baxromova Nazokat Baxromovna

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunos

<tel:+998889226314>

E-mail: nazokatbaxromova@4gmail.com

Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”¹. Sh.M.Mirziyoyev

Zamonaviy bilimlarni egallash uchun albatta til bilan bog‘liq masalalar, xalq tasavvurlari va dunyoqarashining aks ettiruvchi tilshunoslik, falsafa, dinshunoslik kabi fanlarni hamisha hammani qiziqtirib kelgan. O‘zbek va yapon tillarda mavjud bo‘lgan evfemik birliklar tilshunoslar tomonidan o‘rganilishi, madaniy va axloqiy jihatdan qo‘llanilishi ta‘qiqlangan, noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llanilishi evfemizmlar haqida fikr yuritamiz. Shu boisdan fanimizning har bir bosqichida bu masalaga doir qator tadqiqot ishlari olib borilgan va bu muammo bilan tilshunoslikning alohida yo‘nalishlari shug‘ullangan. Shu jumladan, barcha tillarda mavjud bo‘lgan evfemik birliklar ham tilshunoslar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Madaniy va axloqiy jihatdan qo‘llanilishi ta‘qiqlangan, boshqacha aytganda noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llanilishi evfemizmlar deyiladi. Evfemizm so‘zi grekcha euphemeo – “yumshoq, muloyim gapiraman” degan ma‘noni anglatadi. Efemizm haqida tilshunoslikda juda ko‘p fikrlar olg‘a surulgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan 24.01.2020 yil

Evfemizm tushunchasi tilshunoslar o'rtasida juda ko'p munozarali munosabatlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

“Ba’zi tilshunoslar tadqiqotchilar fikricha evfemizm talqini bu - tilda mavjud nominativ ma’noga ega bo’lgan so’zlarni metafora asosida yumshatadi degan fikrni olg’a surishsa, ba’zi tilshunoslar esa evfemizm bu-ma’no ko‘chishining bir turi bo’lib, ular so‘z ko‘chishi orqali vujudga keladi degan fikrdalar”².

Sharq xalqlaridan biri bo’lmish yapon xalq tilida ham o‘ziga xos evfemizmlar mavjud. “Evfemizm” so‘zi yapon tilida 婉曲表現 (enkyoku hyougen) “chiroyli aylanib o‘tish “degan ma’noni anglatib, samimiy so‘zlardan foydalanish deb tushuniladi.

Ikki tilda ham “O‘lmoq” tushunchasi eng ko‘p evfemlashtirilgan, yuzlab badiiy-majoziy, nozik uslubiy xususiyatlarga ega bo’lgan evfemik vositalarning shakllanishiga sabab bo’ladi. Xususan buyuk shaxslar o’lganda, ularning nomlarini tilga olish butunlay man etilgan. 1916-yilda Grigoriy Rasputin o’ldirilganda, uning ismi va familiyasini, hatto laqabi-oqsoqol (стапец) ni tilga olish taqiqlangan. Jurnalistlar “bir mashhur shaxs o’ldi “Умер одно значительное лицо” evfemasini qo‘llashgan va hamma bu shaxs Rasputin ekanligini anglagan”.

Islom dinida sahobalardan bo’lgan Umar: “Payg‘ambar alayhissalom o’ldi”, degan xabarni olib kelganlarga Rasulloh ollohning huzuriga jo‘nadilar deb uqtiradilar. E’tirof etish kerakki, tilimizdagi o’ldi fe’li 300 dan ortiq evfemik shaklga ega. O‘lim bilan bog‘liq evfemalar mazmunga ko‘ra dastavval:

- a) diniy;
- b) dunyoviy evfemalarga ajraladi.

Diniy evfemalar ko‘proq jonning mavjudligi, tanadan chiqib ketishi, u dunyoga-xudo huzuriga borish, jannat yoki do‘zaxdan joy olish kabi

² Ismatullayev N. Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari. T.: 1997 yil 77-bet

tushunchalar asosida paydo bo'lgan. “Diniy evfema ko‘proq dindorlar nutqiga xos bo‘lib, bu vazifada omonatini topshirmoq, musulmonchilik qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq, jon bermoq, u dunyoga (narigi dunyoga, chin dunyoga) ketmoq, rahmatiga o‘lmoq kabi evfemalar qo‘llaniladi. Diniy evfemalar har bir xalq, har bir insonning qanday dinga e‘tiqod qilishiga qarab turlicha bo‘ladi. Ya‘ni o‘sha din bilan bog‘liq evfemalar insonning butun hayoti davomida unga hamroh bo‘ladi”³. Yapon xalqi buddizm, katolik, xristian, islom dinlariga, ba‘zilari esa umuman hech qanday dinlarga e‘tiqod qilmaydilar. Shunday bo‘lsada, diniy ta‘limot yapon xalqida qadimdan singib ketgan aqidalar ta‘sirida, shu kungacha saqlanib qolgan.

Din bilan bog‘liq evfemik vositalar, bir qator evfemik so‘zlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Yapon milliy madaniyatida ham o‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar ko‘p uchraydi. Ushbu evfemizmlarni chuqurroq o‘rganib, tahlil qilganimizda, ularning kelib chiqishi din bilan bog‘liq ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bizga ma‘lumki, yapon xalqi xristian, buddizm, katolik dinlariga e‘tiqod qiladi. Ana shu dinlar ta‘sirida yapon tilining lug‘at boyligi anchagina boyigan.

Yapon tilida ham “o‘lmoq” so‘zi bilan bog‘liq evfemizmlar talaygina uchrovchi jarayon. Yaponlarda ham o‘zbek evfemizmlari kabi “o‘lmoq” so‘zining evfemizmi fe‘l bilan ifodalanadi. Masalan: “死”(shi) o‘lmoq fe‘li bo‘lib, diniy evfemizmlari quyidagilar:”あの世に行く (ano yo ni iku – u dunyoga ketmoq), 他界する (takai suru – o‘zga olamga ketmoq), 往生する (oujou suru – kelasi hayotiga jo‘namoq), 幽明境をことになる (yuumei sakai wo koto ni suru - o‘zga olam chegarasini kesib o‘tmoq), 世を去る (yo wo saru – dunyoni tark etmoq), 辞世する (jisei suru – olamdan o‘tmoq) kabi.

³ Omonturdiyev A. “Evfemik vositalarning funksional uslubiy xususiyatlari”. Filol.fan.nomzodi.dis – T.: 1997 yil 45-bet

“O‘lmoq” tushunchasining o‘zbek tilidagi evfemalari “o‘limning turi”, o‘lgan kishining kimligi (yoshi, mansabi-martabasi kabi va h.k)ga qarab turlicha qo‘llaniladi. Masalan, halokatga uchragan, jangda halok bo‘lganlarga nisbatan ko‘proq halok bo‘lmoq, qurbon bo‘lmoq, omonatini topshirmoq; buyuk shaxslarga nisbatan shonli hayot yo‘liga yakun yasamoq, oramizadan ketmoq, vidolashmoq; yosh bolaga nisbatan jannatga uchmoq, gul terгани ketmoq, hur bo‘lmoq evfemalari qo‘llaniladi.

Yapon tilida ham bu so‘zlar o‘z evfemiga ega. Masalan: halokatga uchraganlarga 鬼籍に入る (kiseki ni hairu - o‘lim navbatini qabul qilmoq), 亡き数に入る naki kazu ni hairu - marhumlar safiga qo‘shilmoq) jangda halok bo‘lganlarga 死没 (shibotsu - quyoshi botmoq), お隠れる (okakure - ko‘zdan yoqolmoq), 土になる (tsuchi ni naru - yerga aylanmoq) buyuk shaxslarga nisbatan 巨星墜つ (kyosei otsu - porloq yulduzdan judo bo‘lmoq), 空しくなる (munashiku naru - tirgaksiz qolmoq) yosh bolaga nisbatan 巨星落ちる (kyosei ochiru - yulduzi so‘nmoq), 永眠する (eiminsuru - mangu uyquga ketmoq), 安らかに眠る (yasuraka ni nemuru - sokin uyquga ketmoq) kabi. O‘zbek hamda yapon tillarida evfemizm so‘zlarida nafaqat din, balki xalqning milliy o‘ziga xosligi, mentaliteti, badiiy tafakkuri ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, evfemizmlar nafaqat nutq jarayonida yoki badiiy adabiyotda qo‘polroq, uyatliroq so‘zlarni boshqa bir yumshoqroq, mayinroq so‘zlar bilan ishlatilishi odat tusiga kirishga ulgurgan desak adashmagan bolamiz. Ayniqsa, yapon tilini chet tili sifatida o‘rganish jarayonida yapon tili evfemizmlarini egallay olish, ular haqida tushunchaga ega bo‘lish ham muhimdir.

O‘zbek hamda yapon tilning nutq nozikliklari, qiyinchiliklari mavjud bo‘lib, til o‘rganuvchilardan ushbu jihatlarni ham to‘liq o‘rganish talab etiladi. Zero, bu orqali nutq madaniyati oshadi. Yapon tili o‘rganuvchilari nafaqat yapon tilini uning urf-odatları, balki nutq uslublarini ham mukammal

o'rganishlari lozim, jumladan o'zbek tilini o'rganmoqchi bo'lgan yaponlar ham.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan 24.01.2020
2. Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 1977. – Б. 83.
3. Рафиев А. Иборалар нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 340 б.
4. 山口治彦「第78回死の婉曲表現」記事 2014年6月5日
onary.sanseido-publ.co.jp 2ページ
5. <http://www.dbpia.co.kr> (KR Fanlar Akademiyasining talabalar uchun maxsus sayti)
6. www.president.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
7. <https://natlib.taplink.ws/>
8. <https://library.ziyonet.uz/uz>